

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARDAGI SALOMATLIKKA TAALUQLI MAQOLLARNING PRAGMATIK VA SINTAKTIK XUSUSIYATLARI

Ibragimova L.A.¹

Annotatsiya:

Sog'lik va salomatlikka oid maqollarning grammatik nuqtai nazardan har xil strukturalarga ega bo'lishi va semantik jihatdan mazmun to'ldirishi uning nutq jarayonidagi qo'llanilishi hamda diskursiv pragmatik xususiyatiga bog'liq ekanligi maqolada o'z aksini topadi. Xususan maqollar odatdagi grammatik modelga ega bo'lsada, gap tarkibidan tubdan farq qilishi be'vosita ma'no o'rniga bilvosita ma'noni berish uchun qo'llanilishi ushbu maqolada keltirilib alohida izoh beriladi.

Kalit so'zlar: pragmatik xususiyat, diskurs, struktural jihat, leksema, kognitiv ma'no

Qisqartirilgan maqollardagi maqollar grammatik jihatdan turli strukturaga ega bo'lishidan qat'iy nazar ular muloqot jarayonida, nutqda kommunikativ birlik sifatida turli xil kommunikativ vaziyatlarda qo'llaniladi. Salomatlikka oid maqollarning qayd etib o'tilgan barcha strukturalari diskursda semantik jihatdan mazmun to'ldiradigan vazifalarni bajaradi. Maqollarning nutq jarayonidagi qo'llanilishi uning diskursiv pragmatik xususiyatiga bog'liq bo'ladi. Shuningdek struktural jihatdan buyruq, yoki sodda gap tarkibli ergashgan qo'shma gap yoki qo'shma gap tarkibli maqollar ham funksional jihatdan nutqda o'ziga xos vazifalarni bajaradi. Bu kabi maqollarning nutqda yoki matndagi ishtiroki uning pragmatik funksiyasiga aloqador hisoblanishi Sh.Raxmatullayevning "O'zbek tilida fe'l frazemalarning bog'lashuvi" dissertatsiyasida keltirib o'tilgan. Ingliz va o'zbek tillarda ikki bosh bo'lakli gaplar bir bosh bo'lakli gaplarga nisbatan ko'pchilikni tashkil qilishi aniqlandi. Ikki bosh bo'lakli gaplar odatda ega kesimdan iborat bo'ladi. Bu kabi salomatlikka oid maqollar sirasiga quyidagilar kiradi: "Drunken night makes a cloudy morning" tarjimasi "mastlikda o'tkazilgan kechadan so'ng bulutli tong kelar". O'zbek tilidagi misolida esa "sog'liging pokliging" ushbu maqoldagi sog'liging ega vazifasida pokliging esa fe'l o'rnida ishtirok etgan. Ananaviy sintaktikada gap strukturalari odatda to'liq va to'liqsiz gaplar tarzida bo'ladi. To'liq gaplar ega kesimdan tashqari, gapda gapning boshqa bo'laklari ham ishtirok etadi. Qisqa gaplarda esa odatda gapning biror bo'ladi tushib qoladi. Ammo u ma'nodan anglashiladi. Shu nuqtai nazardan salomatlikka oid maqollar tahlilida to'liq gaplar ba'zi holatlarda to'liqsiz gap tarzidagi maqollar ham mavjudligi ko'rindi. Binobarin o'zbek tili akademik grammatikasida sintaksis doirasida to'liq gaplar Z.T.Xomanovning "Tilshunoslikka kirish" kitobida quyidagi guruhlar ajratilgan

1. Biologik nutq jarayonida yuzaga keladigan to'liqsiz gaplar;
2. Metafor tarzda qo'llanadigan to'liqsiz gaplar;
3. Frazologik birlikma tarzidagi gaplarda uchraydigan to'liqsiz gaplar;
4. Qo'shma gap tarkibidagi to'liqsiz gaplar.

Maqollar kognitiv tarzidagi maqollar, struktur va gap tarkibida ishtirok etadigan maqollar nuqtai nazaridan farq qiladi. Bir saviyali gaplar ko'pincha shaxsi noaniq yoki shaxsi umumlashtirilgan bo'lishi mumkin. Bundan tashqari ega vazifasidagi kesim sifatli shaklida kelishi yoki ega ega vazifasida ishtirok etayotgan birlik mavhum ot vazifasida ishtirok etishi shuningdek ega vazifasida turdosh otning ishtirok etadigan salomatlikka oid qator maqollar ingliz-o'zbek tillarida uchradi. Masalan: "health and cheerfulness mutually beget each other", "Cleanliness is next to godliness", "A sound mind in a sound body". O'zbek tilidagi misolida esa "Omon bo'lsang, Olam seniki", "Sog'liging-boyliking" kabi salomatlikka oid paremiologik birliklarda "olam", "boylik", "sog'lik", kabi mavhum tushunchalar mavjudligi ko'p e'tiborimizni jalb qildi. Ingliz-o'zbek tillaridagi salomatlikka oid maqollarni qiyoslar ekanmiz ingliz tilida aniq shaxs sifatida kishilik olmoshi ega vazifasini bajaradigan tibbiyotga oid bir qancha maqollar uchradi. Ammo o'zbek tilida ega vazifasida kishilik olmoshi ishtirok etadigan salomatlikka oid maqollari biz to'plagan maqollarimiz ichida uchramadi. Shu nuqtai nazardan ingliz tilidagi kishilik olmoshlari ishtirok etadigan quyidagi salomatlikka oid maqollar aniqlandi. Ulardan "It's the owner of the body who looks out for the body", "I can't take tea for someone else's fever", "you are what you eat", "if you want to live long, be healthy and fat, drink like a dog and eat like a cat", "He who has health has hope; and he who has hope has everything". Takidlash joizki, ma'lum o'xshash grammatik modelga ega bo'lgan, odatdagi gap tarkibi va semantikasi maqollar semantikasidan farq qiladi. Maqollar odatdagi grammatik modelga ega bo'lgan gap tarkibidan tubdan farq qiladi. Xususan "imperative" ya'ni buyruq tarkibli gaplar odatda be'vosita ma'noni

¹ Ibragimova Lola Asatullo qizi, SamDCHTI Ikkinchi chet tillar kafedrasida o'qituvchisi

nazarda tutsa, maqollar bilvosita ma'noni berish uchun qo'llaniladi. Odatdagi buyruq tarkibli gaplar, ma'lum bir shaxsga qaratilgan bo'lib hozirgi yoki kelasi zamondagi ma'lum voqea hodisalarga undash, yoki tinglovchini ma'lum maqsadli harakatga yo'naltirayotga bo'lsa, gap tarkibli maqollar esa universal kontekstga ega bo'ladi. Ular temporal xususiyatga ega bo'lmaydi. Shuningdek umum xarakterga ega sanaldi. Ular odatda inson bilan bog'liq har qanday vaqtga tegishli bo'lgan hodisalarni tasvirlash uchun, yoki bo'lmasam ma'lum bir mazmunni aktualligini qayd etish yoki uni muloqot vaziyati bilan bog'lash kabi xususiyatlarni tasvirlash uchun qo'llaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1]. Raxmatullayev Sh. *O'zbek tilida fe'l frazemalarning bog'lashuvi.- uslubiy qo'llanishi. filol.fan.nomzod.dise.avtoreferati.- Samarqand,2002.-24b.*
- [2]. Кароматова К.М, Кароматов Х.С. *Proverbs. Мақоллар. Пословицы-Тошкент Меҳнат, 2000.-400 с.*
- [3]. Xolmanova Z.T. *Tilshunoslikka kirish. Toshkent-2007.-168 b.*
- [4]. Mieder. W, Kingsbury s.a and HarderK.A *Dictionary of American Proverbs.-n.y.: Oxford University Press, 1992.-728p*